




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023- YIL YANVAR-MAY OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)**





Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2023 yil yanvar-may oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-may oylarida Qoraqalpoq'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 6300,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 90,4 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 5394,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 85,6 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 26,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 9,3 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 157,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 70,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.



*2023-yil yanvar-may oylarida
O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*

Ohah tosh



Tabiiy gaz



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	108358,9	75374,2	-32984,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	604,4	443,7	-160,7

Gaz kondensati




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	33,2	26,1	- 7,1

Ishlab chiqaradigan sanoat

5


2023-yil yanvar-may oylarida



2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5394,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,6 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,02 % ni (2022-yilning yanvar-may oylarida – 0,2 %), oʼrta-yuqori texnologiyali – 52,1 % (63,8 %), oʼrta-quyi texnologiyali – 3,8 % (3,4 %) hamda quyi texnologiyalisi – 44,1 % (32,6 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 52,4 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 71,5%), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 19,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,6 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 89,0 %) tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




Paxta chigit




Sement



**O'simlik yog'i
(tozalangan)**



Kalava ip



**Yumshoq bug'doy
va spelta uni**



2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,8 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 164,8 % ga), 3,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (47,7 %), 7,4 ming tonna kalava ip (4,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 1358,0 ming litr aroq (10,4 %), 25,4 ming tonna paxta chigit (6,3 %), 16,2 ming tonna paxta tolasi (5,8 %) 80,7 ming tonna portlandsement (31,9 %), 27,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (49,9 %) ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirit	1516,1	1358,0	-158,1
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2407,8	3555,6	1147,8
Paxta tolasi, t.	17167,8	16164,4	-1003,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	53789,5	26972,2	-26817,3
Polietilen, ming t.	126,3	103,4	- 22,9
Polipropilen, ming t.	36,0	30,6	-5,4

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-may oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 51,8 % ni, fizik hajm indeksi 68,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2797,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 9,8 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 963,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 2,0 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1089,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 133,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,0 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 148,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2022- yilning yanvar-mayl oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 92,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 105,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 160,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mayl oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 90,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 76,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-may oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 375,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 72,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-may oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 31,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 426,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-may oylariida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 298,3 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagи ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 69,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 33,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 797,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,7 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,7 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	2085,3	2180,9	95,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	27,2	24,7	-2,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,9 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3436,8	3489,9	53,1
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha, xizmatlar, mln. so'm	7748,5	3951,6	-3796,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,5 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chinqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 49,0 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1071,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 82,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 17,9 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 112,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 127,2 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (114,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (215,4 %), Nukus (180,2 %), Amudaryo (127,7 %), Shumanay (125,5 %), Beruniy (124,7 %), Ellikqal'a (124,0 %), Qorao'zak (123,3 %), Kegeyli (119,2 %) hamda Bo'zatov (118,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtako'pir (62,5 %), Mo'ynoq (91,0 %), Taxiatosh (95,2 %) hamda To'rtko'l (98,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

